

PRAGMATIKADA MATN TAHLILI

Mo‘minova Xulkaroy

Annotatsiya: Bu maqola pragmatikada matn tahlili jarayoniga atroflicha azoh beradi.

Kalit so‘zlar: lingvistik element, pragmatika, matn tahlil, semantika, predikat,

Hozirgi zamon xorijiy tilshunoslikda 1972 yilgacha matn lingvistikasi pragmatikaga oid umumlashtirilgan qo‘lga kiritilgan ishlar V.Dresslerning “Matn nazariyasi muammosi” nomli ishida o‘z aksini topgan. U D.Vunderlix, V.Kummer, G.Klaus fikrlariga qo‘shilgan holda suhbat ishtirokchilarining til belgilariga munosabati pragmatika asosi hisoblanadi deydi. Shu bilan birga u o‘rganilayotgan holatning funksional xususiyatiga ham diqqat qaratadi. Ya’ni til belgilarining kommunikatsiya aktlaridagi qator ekstralengvistik elementlarga bog‘liqligini aytadi. Bundan tashqari, V.Dresler matn pragmatikasi ekstralengvistik statusga ega (“pragmatika lingvistikaga umuman tegishli emas”) deb e’lon qiladi. Aytgancha, “Matn pragmatikasi” deb nomlanuvchi tilshunoslikning matn tahlili bo‘limida muallif lingvistik elementlarni pragmatik ma’no sifatida qayd etganidek, lingvistik belgilar va ekstrolengvistik sharoitlar bog‘liqligini aytadi. Aniqroq qilib aytganda, u pragmatik relevant dolzarb bo‘linishi, so‘zlarning pragmatik roli jihatidan tartibi, semantik aloqaning pragmatik asoslanganligi va shu kabilar haqida gapiradi. Muallif tomonidan tildagi ziddiyatlarni yechishda pragmatikaning o‘rni; matnning pragmatik shartlari kabi mavzuni lingvistik jihatdan amalga oshirilishi; matnning pragmatik jihatdan tobe bosh va oxirgi qismlarini lingvistik bezash kabi masalalar ko‘rib chiqiladi. Tahlil natijalari V.Dresslerni matndagi lingvistik elementlarda pragmatik holatlar ham bor degan fikrga keltiradi. Shuning uchun bizda pragmatika va lingvistika bir-biriga qiyoslanmaydigan holat, ularni bir-biriga qarshi qo‘yish mumkin emas, degan

tushuncha paydo bo‘ladi. Bizningcha, pragmatikani matndagi bir aspekt sifatida semantika bilan bir qatorda qarab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Qizig‘i shundaki, V.Dressler tez-tez matn pragmatikasiga matn tuzilishi darajasidagi kabi izohlar bergen. 3 V.Dressler o‘z ishlarida bevosita matn pragmatikasi masalalariga juda kam e’tibor qaratgan. V.Dressler muallif maqsadi, jo‘natuvchi va qabul qiluvchining layoqati va bilimdagi shart-sharoitlari, oluvchining joyi va qabul qilish kengligi, sotsial munosabatlarda jo‘natuvchi va oluvchi o‘rtasidagi shart-sharoitlar, jo‘natuvchining intensiyasi kabi masalalarni pragmatik deb hisoblaydi. Shuningdek, kommunikativ tasniflash¹, performativli predikatlar – qaysikim xabar berish vazifasini bajaruvchi (Darstellungsfunktion), matn yordamida xabar qabul qiluvchi, istak hosil qilish vazifasini bajaruvchi (Auflosungsfunktion), baholash vazifasini bajaruvchi (Bewertungsfunktion) – jo‘natuvchi bahosi, murojaat vazifasini bajaruvchi (Kundgabefunktion) kabi muammolar ham shu yerga kiritiladi. Ana shulardan kommunikativ predikatlarga munosabat paydo bo‘ladi. Yuqorida bayon qilinganlardan shu narsa anglashiladiki, sanab o‘tilgan funksiyalarning hammasi yagona maqsadga – qabul qiluvchining ta’sir doirasiga qaratilgan va ular ta’sir doirasining turli yo‘llarini hosil qilishi mumkin. Ya’ni-to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilish (funksiya pobujdeniya) va noto‘g‘ri yo‘l bilan ta’sir qilish (funksiya soobsheniya, funksiya obrasheniya, otsenochnaya funksiya). Matn pragmatikasi mavzusining munozarali masalalariga V.Dressler pragmatika mazmunini kiritadi1 Bu muammo bo‘yicha bir qator fikrlarni bayon etadi. Shulardan biri matn pragmatikasi gap pragmatikasi qiymati sifatida o‘rganilishidir. Z.Schmidt, Ya.Petofi, Van Deykning fikrlaricha, matn butun holicha o‘z muallifiga va qabul qiluvchisiga tegishli bo‘lib, butun boshli matn orqali ma’lum bir maqsadga erishiladi. Aniqroq qilib aytganda matnni jo‘natish – ma’lum bir maqsad yo‘lidagi kommunikativ holatdir. 2 Bizning fikrimizcha , har ikkala fikr ham to‘g‘ri. Chunki ular bir-biriga qarama-qarshi ma’no anglatmasdan, aksincha bir-birini to‘ldiradi. Bu matn tahlilida katta yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Boduen de Kurtene I.A. Izbrannie trudi po obo‘emu yazikoznaniyu. - M.: Izd-vo AN SSSR, 1963.t 2.-391 s.
2. Bozorov O.O. O‘zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi. NDA.-Farg‘ona, 2004. – 21b.
3. Bondarko A.V. Vremennaya lokalizovannost. V kn.: Teoriya funktsionalnoy grammatiki. - L.: Nauka, 1987.-S. 210-233.
4. Borbotko V.G. Printsipi formirovniya diskursa. Ot psixolingvistike k lingvosinergetike. - M.: Kom Kniga, 2007.-288 s.
5. Budagov R.A. Yazik – realnost – yazik. – M.: Nauka, 1983. -262 s.
6. Budagov R.A., V kakoy mere «Lingvistika teksta» yavlyaetsya lingvisticheskoy? V kn.: Budagov R.A. Filologiya i kultura.- M.: Izd-vo MGU, 1980.-S.77-86.
7. Dressler.V.Problema teorii teksta. –M.: MGU, 1978. –S.92. 2